

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

«TABIIY FANLAR VA GEOGRAFIYA» FAKUL'TETI

Geografiya yonalish 2-kurs 201-guruh talabasi

Mallabayeva Saidaning

Jahon geografiyasi fanidan

JAXON QISHLOQ XO'JALIGI

mavzudagi

KURS ISHI



Namangan-2014

MAVZU: JAXON QISHLOQ XO'JALIGI

Reja:

Kirish

- 1. Qishloq xo`jaligining ijtimoiy va hududiy tashkil qilish xususiyatlari.**
- 2. «Ko`k inqilob» va uning mohiyati**
- 3. Ziroatchilik va uning tarmoq tarkibi**
- 4. CHorvachilik va uning tarmoq tarkibi**
- 5. Dunyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligi ijtimoiy - iqtisodiy tiplarining xususiyatlari**

Hulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Qishloq xo'jaligi moddiy ishlab chiqarishning ikkinchi yirik tarmog'idir. U kishilik jamiyatining eng qadimgi xo'jalik sohasi hisoblanadi. Shu bilan biiga, bu ishlab chiqarish tarmog'i barcha davrlarda insonning kundalik iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiruvchi asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Shu sababli, jahonda bironta mamlakat yo'qki, unda qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq bo'lgan o'rmon, ovchilik, baliqchilik xo'jaliklari tashkil topmagan bo'lsin. Hozirgi vaqtda bunday xo'jalik tarmoqlarida hammasi bo'lib 1 mlrd. dan ortiq kishi yoki jami iqtisodiy faol ahohning 70 foizidan ko'prog'i ish bilan band.

Qishloq xo'jaligining asosiy xususiyatlaridan bin uning joylardagi tabiiy iqlim sharoiti bilan chambarchas bog'liq ekanligidir. Boshqacha aytganda, tabiiy iqlim sharoiti imkon bersagina muayyan hududlarda bug'doy, sholi, paxta, meva, choy kabi mahsulotlarni yetishtirish mumkin bo'ladi. Shu sababli, qishloq xo'jalik tarkibi va tarmoqlarining hududiy joylashish holati turlicha bo'ladi. Ishlab chiqaradigan mahsulotlari xususiyatlariga ko'ra, barcha qishloq xo'jalik tarmoqlari ikki guruhga: *dehqonchilik* (ziroatchilik) va *chorvachilikka* bo'linadi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi rivojlanish darajasiga ko'ra ikki turga bo'linadi. Birinchisi, *rivojlangan tovar qishloq xo'jaligi* bo'lib, ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlar bozor, birinchi navbatda, tashqi bozor uchun mo'ljallangan bo'ladi. Bunday xo'jaliklar ishi intensiv tashkil qilingan zamonaviy dehqonchilik va chorvachilik sohalari bo'lishi mumkin. Ikkinchisi, *asosan, ickki xo'jalik iste'moli* uchungina mahsulot ishlab chiqaradigan, odatda, kam samarali qishloq xo'jaliklaridir. Bunday xo'jaliklar qadimdan keng tarqalgan bo'lganligi sababli an'anaviy qishloq xo'jaligi ham deyiladi. Ularda ish, odatda ekstensiv holda tashkil qilingan bo'ladi. Hozirgi vaqtda bunday qoloq dehqonchilik xo'jaliklari jahonning rivojlanayotgan ko'pchilik mamlakatlarida keng tarqalgan.

Tovar qishloq xo'jaligi asosan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keng rivojlangan. Odatda, ularda FTI yutuqlaridan ustun darajada foydalanishga erishilmoqda. Ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, kimyolash-tirish darajasi ularda juda yuqori. Bunday xo'jaliklarda endilikda ishlarni avto-

matlashtirish (tarmoqlarda me'yoriy agroiklim va boshqalar)ni yaratishga katta e'tibor beriladi, mikroelektronika, seleksiya, genetika, biotexnologiyaning so'nggi yutuqlarini joriy qilish asosiy o'rin tutadi. Ularda agrar (lotincha *qishloq xo'jaligi* demak) ishlab chiqarishi sanoat bilan bog'lanib ketgan va agrosanoat xo'jaliklariga aylangan. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda so'nggi yillarda fermerlikning o'ziga xos agrobiznes shakli yuzaga keldi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa tovar qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishga e'tibor kuchayayotgan bo'lishiga qaramay, ular hamon an'anaviy, faqat o'zlari uchun iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi notovar xo'jalik mamlakatlari bo'lib qolmoqdalar. Notovar qishloq xo'jaliklari aslida yuz millionlab mayda va o'rta xo'jaliklar asosida tashkil topgan. Ular, odatda, o'zlarimgina oziq-ovqat va boshqa iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlashga arang qurbi yetishi mumkin. Jahonning ayrim mintaqalarida, jumladan, Markaziy va Sharqiy Afrika, Janubiy va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlarida hali ham omoch, motiga kabi oddiy ish qurollari va almisoqdan qolgan qoloq ishlab chiqarish texnologiyasidan foydalaniladi.

1. Qishloq xo`jaligining ijtimoiy va hududiy tashkil qilish xususiyatlari.

Qishloq xo`jaligi umuman iqtisodiyotning qadimiy sohasidir. Dastlabki ijtimoiy mehnat taqsimoti ham avval chorvachilik, sungra dexkonchilikning paydo bo`lishi bilan bog`liq. Dexkonchilik va, xususan sug`orma dexqonchilik jamiyat taraqqiyotida alohida, inqilobiy ahamiyatga ega bo`lgan. Sababi - aynan sug`orma dexkonchilik jamoa, uning asosida doimiy aholi manzilgoxlarining vujudga kelishida muhim rol uynagan, keyinchalik dexqonchilik xunarmandchilik va savdo-sotiqni, ular esa o`z navbatida manufaktura va yirik mashina industriyasini rivojlantirishga olib kelgan. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi uchun quyidagilar xos:

- agrar soha bevosita tabiiy sharoit bilan bog`liqligi tufayli u mavsumiy xarakterga ega;
- mavsumiyligi uchun mehnat resurslari ham yil davomida band emas;
- qishloq xo`jaligi rivojlanishi sanoatga nisbatan uzgaruvchan ko`rinishda boradi;
- bu tarmoqda ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil qilish shakllari o`ziga xos mujassamlashuv va ixtisoslashuv torrok, kooperatsiya va kombinatlashuv esa juda kam xollarda uchraydi;
- qishloq xo`jaligi tarmoqlari areal yoki maydon shaklida hududiy tashkil qiladi;
- mazkur tarmovda ekstensiv va intensiv rivojlanish yakkol kurinadi;
- qishloq xo`jaligining tarmoqlar tarkibi sanoatga o`xshash uncha boy emas;
- qishloq, xo`jaligida mulkchilikni xususiylashtirish osonrok;
- xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilish, chet el investorlarini qishloq xo`jaligiga jalb qilish kamrok va x.k.

YUqoridagi xususiyatlar ushbu tarmoqning iqtisodiyoti va geografiyasiga jiddiy ta`sir ko`rsatadi. CHunonchi, tabiiy sharoitning iqlim va ob-xavoning noqo`layligi qishloq xo`jaligi unumdorligi, u esa kayta ishlovchi (ozik-ovkat) sanoatiga va pirovard natijada xalqning turmush darajasini pasayishiga olib keladi.

Kolaversa, qishloq xo'jaligi bilan sanoatning boshqa tarmoqlari: mashinasozlik, ximiya, qurilish materiallari sanoati va elektr-energetika ham aloqador.

Mehnat resurslaridan foydalaiishning mavsumiyligi. ishlab chiqarishning mujassamlashuv darajasini yuqori emasligi mazkur tarmoqning iqtisodiy ko'rsatkichlarini pasaytiradi. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligida er ishlab chiqarish vositasi bo'lib, uniig tabiiy xosildorligi hamma joyda ham bir xil emas.

Qishloq xo'jaligi asosan ikki katta tarmoqdan, ya'ni dexqonchilik va chorvachilikdan tashkil topgan. Er yuzi bo'yicha qishloq xo'jaligida dexkonchilik oldinda turadi, Biroq, shunday bo'lsada dexkonchilik va umuman qishloq xo'jaligida tarmoqlarning turlanishi sanoatta nisbatan sustrok bormokda. Ayni vaqtda qishloq xo'jaligidagi ayrim yangi yo'nalishlar - broyler parrandachiligi, teplitsa (issik xona) xo'jaligi, sut va gusht fabrikalari, uzlarining tashkil kilinishiga karab ko'proq industrial sohaga yaqin turadi.

So'nggi yillarda ba'zi bir maxsulotlarning etishtirilishi (pomidor, bodring, ziravorlar va b.) mavsumiy xususiyatini yo'qotib bormokda. Masalan, Toshkent bozorlarida bunday maxsulotlar deyarli yil buyi mavjud. Albatta, bu o'rinda "geografik konveyr»ning roli ham bor. CHunki, yuqoridagi qishloq xo'jalik maxsulotlarini etkazib turish turli hududlarda, ularnipeg agroiqlimiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda navbatma-navbat amalga oshiriladi.

YAna shuni qayd etish joizki, ayrim qishloq xo'jaligi mevalarining geografiyasi tobora kengayib bormokda. CHunonchi, anjir, anor va ayniqsa xurmo faqat alohida, subtropik rayonlarning mevasi bo'libgina qolmay, ular endigi sharoitda ko'pgina hududlarda etishtirilmokda.

Qishloq, xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirishga tabiiy va ijtimoiy -iqtisodiy omillar ta'sir kursatadi. Tabiiy komponentlar ichida eng avvalo iqlim, suv va tuprokning axamiyati katga. Iqlim sharoitlari, xarorat, er osti va er usti suvlari tuprok xususiyatlari qishloq xo'jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibini ko'p jihatdan belgilab beradi.

Foydali xarorat, ya'ni yig'indisi yil davomidagi sutka xaroratining $+10^{\circ}\text{S}$ -dan yuqorisi va ijobiy xarorat yigindisi (erta baxordan to kech kuzgacha ijobiy

xaroratning summasi) o'simliklarning pishib etishi uchun talab qilinadigan vegetatsiya davrini shakllantiradi. Masalan, paxta uchun birinchi ko'rsatkich eng kamida 20000S, ikkinchisi 40000S bo'lishi kerak

Qishloq xo'jaligi uchun erning axamiyatini ta'kidlagan edik. Ammo har qanday er maydoni ham bu sohada intensiv foydalanish imkoniyatiga ega emas. Binobarin, hududlarning qishloq xo'jalik salohiyati yoki ekiladigan yoki haydaladigan er va umumiy er maydonining nisbati, er fondining xajmi va tarkibi orkali belgilanadi. Ayniksa, sug'oriladigan er maydoni bilan qishloq aholisining ta'minlanganlik darajasi katta mazmunga ega.

Foydalanish mumkin bo'lgan er maydonining xajmi shu joyning geomorfologik xolatiga ham bog'liq. Chunki, tekis bo'lmagan hududlarda er ko'ffitsienti nisbatan past bo'lishi aniq.

Ayni chog'da bizning sharoitimizda faqat er maydoniniig bo'lishi etarli emas. Buning uchun albatta yana issik xarorat va suv, namgarchilik talab kilinadi. Chunki, O'zbekistonda etishtiriladigan qishloq xo'jalik maxsulotlarining ko'pchiligi issiq talab va suv talabdir. Ayniqsa, bodring, pomidor, baqlajon, sholi kabilarda suv sarfi ancha yuqori.

Qizigi shundaki, tabiatda bir joyning o'zida issiq xarorat, dexkonchilikka yaroqli er maydoni va suv kamdan-kam xollarda uchraydi. Suv bor joyda qo'lay er maydoni yo'q (tog'liklar), er maydoni bor joyda suv yo'q (cho'llar). Birinchisida dexqonchilik uchun terrasa usuli, ikkinchisida sun'iy sug'orish qo'llaniladi, Qadimda sug'orma dexkonchilik daryolarning quyilish qismida, del'tasida rivojlangan va buning uchun tabiiy xosildor allyuvial yotqiziqlardan foydalanilgan. Biziing o'lkamizda dastlabki voxalar aynan mana shunday hududlarda vujudga kelgan. Keyinchalik sug'orma dexkonchilik geografiyasi daryolarning kuyilishidan ularning yuqori kismilariga kutarilib borgan, suv omborlari va kanallar qurilishi munosabati bilan tog' yonbagri adirlar ham ishlab chiqarish oborotiga kiritilgan, voxalar bir-biriga tutashib ketgan (masalan, Fargona vodiysida).

Sun'iy sug'oriladigan dexkonchilikdan tashqari bizda baxorikor erlar ham ko'p (Samarkand, Jizzax, Surxindaryo viloyatlari va boshqalar). Bunday tabiiy

namgarchilikdan foydalanib dexkonchilikni yuritish. ernaing gidrotermik rejimini hisobga olgan holda joylashtiriladi. Maxsus adabiyotlarda buning uchun "Lange omili" tushunchasi mavjud bo`lib, u issiklik bilan yogin-sochin nisbatini bildiradi. Jumladan, bahorikor dexkonchilikda yillik yogin - sochin mikdori urtacha yillik xaroratdan kamida 15 marta ko`p bo`lishi talab etiladi. Agar bu koeffitsient 15 dan kam bo`lsa, u holda faqat chul yaylovchiligi rivojlantirish mumkin, xolos.

Havo (xarorat), suv, tuproq - qishloq xo`jaligi rivojlanishi va foydalanishining asosiy uch shartidir, SHu bilan birga melioratsiya va irrigatsiya, mehnat resurslari, fan - texnika tarakkiyoti, transport va boshqalarning ahamiyati ham muhim. Masalan, ishchi kuchi omili, ayniksa, sug`orma dexkonchilikda, sabzavotchilikda katta rol uynaydi. Ammo, ta`kidlash lozimki, O`zbekiston qishloq xo`jaligida mehnat resurslarining bandligi nixoyatda yuqori. Bu esa mazkur tarmoq samaradorligini, uning mehnat unumdorligini nixoyatda pasayishiga sabab bo`ladi. Mavjud ma`lumotlarga kura, AQSH qishloq xo`jaligida atiga 8,7% mehnat resurslari band. Buyuk Britaniyada, xozirgi vaqtda qishloq xo`jaligi maxsulotlari chetdan keltirilganigi tufayli, bu ko`rsatkich 3%ni tashkil qiladi.

Dunyo bo`yicha qishloq xo`jaligida mehnatga layokatli aholining yarmidan ko`prog`i ishlaydi. Afrika va Osiyo davlatlarining ba`zilarida bu ko`rsatkich yanada yuqori (masalan, Nepalda 90%). Ayni vaqtda rivojlangan mamlakatlarda sanoatning "pastki" qatlamlarini rivojlanayotgan mamlakatlarga ko`chishiga o`xshab, ularda qishloq xo`jaligining intensiv shakli saklanib qolmokda, xolos. Qishloq xo`jaligida aholi bandligining qiskarib borishi dastlab Buyuk Britaniyada, so`ngra Belgiya, Niderlandiya, Daniya, AQSH va boshqalarda kuzatilgan. Natijada, xozirgi kunda bu mamlakatlarda bir fermer taxminan 80 va undan ortik kishini ozik-ovkat bilan ta`miilashga kodir. Vaxolanki, rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnat sarfi xaddan tashqari ziyod, kishilok joylarda "yashirin" ishsizlar ko`p aholinnng nisbiy va xatto mutloq ortiqchaligi sezilib turibdi.

2. «Ko'k inqilob» va uning mohiyati

"Ko'k inqilob" va uning mohiyati. "Ko'k inqilob" tushunchasi 60-yillarning o'rtalaridan boshlab Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrika mamlakatlarida amalga oshirilgan agrar islohotlar bilan chambarchas bog'liqdir. "Ko'k inqilob" qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini zamonaviy agrotexnika va boshqarish asosida tashkil qilish negizida, ITI yutuqlarini qo'llash orqali qishloq xo'jaligi ekinlari xosildorligini oshirishdan iborat chora-tadbirlar majmuasidir.

"Ko'k inqilob"ni amalga oshirishda quyidagi xolatlar asosiy o'rin tutadi:

- ya'ni, tez pishar, yuqori unumdorlikka ega donli ekinlarning gibridd navlarini ekish, xosildorlikning 2-3 barobar yuqori bo'lishidan tashqari, qulay agroiklimiy xususiyatlarga ega xududlarda ikki, uch va xatto to'rt marta xosil olish orqali oziq-ovqat muammosi yechimlarini xal qilish;
- irrigatsiya va melioratsiyani kengaytirish va takomillashtirish, ayniqsa sug'orma dehqonchilik madaniyatini rivojlantirish, agrotexnik tadbirlar majmuasini amalga oshirish;
- zamonaviy texnika, mineral o'g'itlar, qishloq xo'jaligi zararkundalarga qarshi gerbitsidlar, biometodlarni qo'llash orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun asos yaratish.

"Ko'k inqilob" xalqaro xamkorlikning natijasi bo'lib, donli ekinlarning yuqori maxsuldor navlari yaratildi. Eng katta yutuq Rokfeller fondi va Meksika qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan Mexiko yaqinida tashkillangan Norman Borlou genetika - selektsiya stantsiyasida ko'lga kiritildi. Amerikalik selektsionerlar tomonidan yuqori navli bug'doy Yaponiyaning past bo'yli navlari bilan chatishtiriladi va yuqori xosildor, kasalliklarga chidamli yangi nav yaratildi. (N.Borlou Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi).

Ushbu navning keng ko'llanishi, sug'oriladigan maydonlar va mexanizatsiya Meksikada keyingi 20 yilda bug'doy xosildorligini 3 marta oshirish imkonini berdi. Natijada, 70-yillarning oxirida Meksika bug'doy import qilishidan uni eksport qilishga o'tdi. So'ngra, sholining «Filippin» navi, Xindistonda «Orissa-1» navlari gektaridan 80 ts sholi, Yugoslaviya selektsionerlari yaratgan bug'doy

navidan esa gektaridan 150 ts xosil olish imkonini berdi. Argentina, Keniya va Zambiyada makkajo'xorining yangi navlari, Markaziy Amerika va And guruxi mamlakatlarida tariq va qo'noqning serxosil yangi navlari yaratildi.

Ammo "Ko'k inqilob" rivojlanayotgan mamlakatlarning xammasida xam ko'tilgan natijalarni bermadi. Chunki, bu rejani amalga oshirishga ma'lum ma'noda dexqonchilikning intensivlashtirish va moliyaviy to'siqlardan tashqari keng dexqonlar ommasining foydalanish imkoniyatlari chegaralanganligi xam ta'sir ko'rsatdi.

"Ko'k inqilob" ni amalga oshirish ma'lum shart-sharoitlar, ya'ni yirik yer egaligi mavjud bo'lgan, sug'orma dexqonchilik rivojlangan qishloq xo'jaligi rayonlarida, ayniqsa Meksika, Xindiston, Pokiston, Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlarida keng yoyildi. "Ko'k inqilob" ayrim donli ekinlarga, jumladan bug'doy va makkajo'xori yetishtirish, uning xosildorligini oshirishga ta'sir qilsada sholi va boshqali xamda texnika ekinlarga ta'siri juda bo'sh edi.

SHunday qilib, dexqonchilikning tarmoq tarkibidagi rayonlararo farqlar "Ko'k inqilob" ning geografik tarkalish qonuniyatlarga xam ta'sir qildi xamda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish qulaybo'lgan xududlarda, ekinlar, birinchi navbatda bug'doy xosildorligi sur'atlari yuqori bo'ldi.

Bunday taraqqiyotga Xindistondagi Panjob shtati va Pokistondagi Panjob provintsiyalaridagi ma'lum shart-sharoitlar :

- qishloqlardagi yirik va baquvvat xo'jaliklarning mavjudligi, irrigatsiya kanallari va qo'shimcha yer osti suvlaridan foydalaniladigan quduqlar;
- bug'doy yetishtirish imkoniyatlarining kattaligi va shu yo'nalishining shakllanganligi;
- xilma-xil qishloq xo'jalik jixozlari ishlab chiqaruvchi mavjud va yangi mayda sanoat korxonalari asosida erishildi.

SHuningdek, "Ko'k inqilob" xorijiy kompaniyalarga karashli yuqori tovar xo'jaliklarda katta muvaffaqiyatga erishgan bo'lsada, ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlarda (ayniqsa, Afrika kontingentida) tabiiy shart-sharoitlardan tashqari,

murakkab ijtimoiy-iqtisodiy sabablar ta'sirida «oziq-ovqat» muammosi keskinlashib bormoqda.

qishloq xo'jaligi - moddiy ishlab chiqarishning eng qadimgi - tarmoqlaridan biridir. qishloq xo'jaligi o'simliklarini o'stirish va ko'paytirish - o'simlikshunoslik (ziroatchilik) va uy xayvonlarini ko'paytirishdan (chorvachilik) iborat ikki bo'limga bo'linadi va ayni vaqtda oraliq tarmoqlar - o'rmon xo'jaligi, ovchilik va baliqchilikni xam o'z tarkibiga oladi. qishloq xo'jaligi axolini xilma-xil oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlabgina qolmay, sanoat tarmoqlarini xom-ashyo bilan xam ta'minlaydi.

Xalqaro statistikada agroishlab chiqarish tizimida axolining erkak ishchi kuchi bandligi asosiy ko'rsatkich sifatida foydalaniladi va mamlakatlarni iqtisodiy rivojlanish darajasini aniqlashda keng qo'llanildi. CHunonchi, agroishlab chiqarish tizimida band erkak ishchi kuchlari 35% dan oz bo'lsa bunday mamlakatlar industrial, 35-59% bo'lsa yarim industrial va 60% undan yuqori bo'lsa, agrar mamlakatlar deb yuritiladi. Ko'rinib turibdiki xozirgi dunyoni yarim industrial sifatida tavsiflash mumkin. Bu umumlashtirish universal jarayonni ifoda etadi va yer sharining turli mintaqalarida joylashgan mamlakatlarda turlicha ko'rinishlarga ega. SHuning uchun mamlakatlar ikkita yirik guruxlarga-iqtisodiy rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarga bo'linadi. qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda 1,1 mlrd.kishi band. Bu dunyo bo'yicha mexnatda band axolining qariyb 50% ni tashkil qiladi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi mamlakatlarda esa 85-90% qishloq xo'jaligi bilan band bo'lsa, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda bu 7-10% (AQSHda, Buyuk Britaniyada 3% xam yetmaydi) tashkil qiladi xolos. qishloq xo'jaligi qishloq axolisi va axoli qo'rgonlarining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda foydalanilayotgan madaniy o'simliklar Lotin Amerikasi va Afrika tog'li rayonlarida, Osiyodagi daryo vodiylarida bir necha ming yillik tarixga egadir. Ayni vaqtda judda katta xududlar (Avstraliya) nisbatan o'zlashtirilishi jixatidan yosh qishloq xo'jalik mintaqalaridir.

qishloq xo'jaligi bir qator o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib:

a) ITI sharoitida xam tabiiy shart-sharoitlarga bog'liqlik xolati saqlanib qoladi; b) bozor talablariga va tabiiy sharoitga bog'liq xolda moslashadi; v) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining xilma-xil tiplari mavjud. (50 ga yaqin tiplar mavjud); g) qishloq xo'jalik maxsulotlarining tovarlilik darajasi va mexnat unumdorligi o'rtasidagi katta farqlar; d) xududning tabiiy imkoniyatlari va undan xo'jalikda foydalanish xarakteri bilan ajralib turadi.

qishloq xo'jaligi deyarli barcha jaxon mamlakatlarida mavjud bo'lsada, ziroatchilik va chorvachilikning uyg'unlashuv xolati turlichadir. Mamlakatda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlanishi va joylashishiga avvalo tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar:

- xalqaro mexnat taqsimoti;
- ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasi;
- mexnat resurslari malakasi va ko'nikmalari;
- iqtisodiy-geografik o'rni;
- qishloq xo'jalik maxsulotlariga bo'lgan extiyoj kuchli ta'sir qiladi.

qishloq xo'jaligining rivojlanishida ikki asosiy: - a) ekstensiv: b) intensiv shakllar mavjuddir.

a) Ekstensiv rivojlanish shakli uchun qishloq xo'jaligining «eniga» kengayishi xarakterli bo'lib, u yangi yerlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jaligi oborotiga kirgizish, qishloq xo'jalik korxonalari, dexqon va fermer xo'jaliklari sonining ortishi, chorva bosh sonlarini ko'payishi, yaylov va o'tloqlarni kengaytirishdan iborat.

b) Intensiv rivojlanish shakli yirik kapital mablaglar bilan bog'liq xolda, qishloq xo'jalik tarmoqlarini kompleks mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, kimyolashtirish, irrigatsiya - melioratsiya ishlarini kengaytirish, zamonaviy infratuzilmalar soxalarini yuzaga keltirish negizida maxsulot yetishtirishni ko'paytirishdir. Intensiv shaklda keng ma'noda ITI yutuqlaridan foydalanish - (yuqori sortli urug'lar, maxsuldor chorva mollari) negizida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining sanoat asoslariga ko'chishi tushuniladi. (teplitsa - parnik

xo'jaliklari, chorvachilik fabrikalari, bo'rdoqichilik bazalari). Yetishtirilgan qishloq xo'jalik maxsulotlarining 25-40% sanoatda qayta ishlanadi.

XX asr 50-yillaridan boshlab yirik shaxar va shaxar aglomeratsiyalari atroflarida ixtisoslashgan shaxar atrofi qishloq xo'jaligi mintaqalari shakllandi. SHaxar atrofi qishloq xo'jaligi shaxar axolisining yangi sut, sut maxsulotlari, sabzavot, poliz va meva bilan ta'minlashga qaratilgandir. Urbanizatsiyalashgan mintaqalarda yerning narxi xaddan tashqari qimmat bo'lishi qishloq xo'jaligini yuqori intensiv rivojlanishini taqozo qiladi. Masalan: 1 gektar yerga solinadigan mineral o'g'itlar, ekstensiv qishloq xo'jaligi mintaqalariga nisbatan 500 martadan ortiq bo'lishi mumkin. ITI qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlanishi va ixtisoslashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. qishloq xo'jalik tarmoqlarining sanoat asoslariga ko'chishi, mexnat unumdorligining ortishi ko'zga tashlansa-da, bu xol ko'proq iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xosdir.

Ayni vaqtda Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasidagi bir qator mamlakatlarda qishloq xo'jaligi ekstensiv shaklga ega bo'lib, unda industrilashtirishgacha davrdagi qoloq bo'lgan ukladlar tizimi va shunga muvofiq ijtimoiy-iqtisodiy muammolar majmuasi mavjuddir.

qishloq xo'jaligini rivojlantirish zaruriyati. Dunyo xo'jaligi tizimida qishloq xo'jaligini ustivor tarmoq sifatida rivojlantirish zaruriyati bir qator sabablar bilan bog'liq agroishlab chiqarish soxasidagi vazifalarni belgilab beradi.

Birinchi sabab - o'sib borayotgan yer shari axolisini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash. XX asrdagi axoli ko'payishining yuqori sur'atlar bilan borishi (Lotin Amerikasi va boshqa bir qator mintaqalarda ayrim yillari axolining o'sish sur'atlari 3% ga yetdi.), «demografik portlash» jarayoni qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirish xajmini oshirib borishni taqozo qiladi. CHunki, XXI asr boshlarida xam BMTning oziq-ovqat komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra 700-750 mln.kishi och, to'yib ovqat yemaydi yoki yarim och xolda kun kechirmoqda.

Ikkinchi sabab - oziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan talabning yuqori darajada o'zgaruvchanligi (moslashuvchanligi), ya'ni uning xajmi, tarkibi va

iste'moli axoli daromadlari bilan chambarchas bog'liqligidir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda axoli jon boshiga o'rtacha oziq-ovqat maxsulotlari iste'mol qilish ilmiy asoslangan me'yorlarda va xatto ayrim sotsial guruxlarda undan yuqori bo'lganligi uchun talab moslashuvchanligi darajasi 0,1-0,2 gacha pasayishi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 0,8 gacha oshishi mumkin. Oziq-ovqat maxsulotlariga bo'lgan talab tez o'sishi, bir tomondan, axolining oziq-ovqat maxsulotlari bilan yetarli ta'minlanmaganligini, ikkinchi tomondan-jamiyatdagi kuchli mulkiy tabaqalanish jarayonini ifoda etadi. Oxirgi jarayon Rossiyaga ta'lluqli bo'lib yuqori daromadli oilalarga nisbatan past daromadli oilalar go'sht maxsulotlari-1,5 marta, tuxum, mevalarga 2 marta baliq maxsulotlariga 4 marta oz xarajat qiladi.

Uchinchi sabab - sanoatning xom-ashyo asosini mustaxkamlash bilan bog'liq. Ayniqsa, bu muammo bilan rivojlanayotgan mamlakatlar to'qnash keldilar. CHunki, industrlashtirish jarayonini tezlashtirishda bu mamlakatlar qishloq xo'jaligiga umid qilgan edilar. Yengil sanoatining yetarli darajada xom-ashyo bilan ta'minlashga urinishlar agroasoslarning bo'shligi tufayli ko'tilgan natijalarini bermadi. Natijada, 80-yillarda ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida sanoat rolining pasayishi kuzatildi. Faqatgina, Janubiy va Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari qishloq xo'jaligini intensivlashtirishlari orqali chuqur tarmoqlararo farqdan qutulib qoldilar.

To'rtinchi sabab - qishloq xo'jaligi iqtisodiy va ijtimoiy soxalarga ishchi kuchi va kapital yetkazib beradigan tarmoqdir. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagi tadqiqotlarda bu jarayon ishchi kuchining «shaxar» tarmoqlariga o'tishi deb qaraladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligiga kapitalning jamgarilishi soxasi sifatida qaraldi va uning boshqa tarmoqlarni investitsiyalashtirishi uchun manba bo'la olishiga e'tibor berildi. Ammo, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan yosh ishlov beruvchi sanoat tarmoqlarini qo'llashdan iborat rasmiy proteksionizm siyosati qishloqlar uchun g'oyat zarur mablag'larni industrlashtirish extiyojlariga sarflanishi, ichki bozorda sanoat maxsulotlarining foydasiga qishloq xo'jaligi

maxsulotlariga noekvivalent ayirboshlanishi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xuddi shunday g'oya SSSRda partiyachi - iqtisodchi Ye.O.Preobrajenskiy (1926) tomonidan ishlab chiqilgan edi. Uning amalga oshirilishi 74 yil davomida SSSRda qishloqlarning xarob bo'lishi va qoloq qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi saqlanib qolishiga qishloq axolisining turmush darajasining og'irlashishiga olib keldi.

Beshinchi sabab - qishloq xo'jaligi valyuta ishlashning muxim manbai bo'lib, dunyodagi bir qator mamlakatlar - Daniya, Niderlandiya, Argentina, Yangi Zellandiya kabi mamlakatlar tashqi iqtisodiy faoliyatida muxim o'rin tutadi. Unchalik to'liq bo'lmagan ma'lumotlarga ko'ra xalqaro savdoga jaxon agrar maxsulotlarining 12% i chiqariladi. Ayni vaqtda, ko'pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo'jalik maxsulotlari eksportiga kuchli bog'liqdir. Masalan: Gvatemala - banan va kofe, Beliz - shakar va tsitrus, Benin - moyli o'simliklar, CHad - paxta yoki chorvachilik maxsulotlari yetkazadilar xam eksportga chiqaradilar.

SHuni aloxida ta'kidlash kerakki, keyingi yillarda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtirish, yuksak texnologiyani qo'llash asosida qishloq xo'jaligi ekinlari xosildorligini va uning maxsulot ko'lamini oshirishga aloxida e'tibor bermoqdalar xamda oziq-ovqat majmuasini rivojlantirish orqali kuchli davlat rolini kelajakda xam saqlab qolishiga umid qilmoqdalar.

CHunonchi, AQSH eksporti qiymatining 20% agrar maxsulot xisobiga shakllanmoqda va 1950 yil ishlab chiqilgan qishloq xo'jaligi maxsulotlarining 7% i chetga chiqarilgan bo'lsa xozir 25% maxsulot chiqarilmoqda yoki xalqaro don savdosida 80-yillarda AQSH xissasi 50% ga yaqinlashgan bo'lsa, endilikda qattiq raqobat sharoitida - 40% atrofida ushlab turishga urinmoqda.

Ko'rinib turibdiki, xozirgi dunyoda oziq-ovqat maxsulotlari eksporti to'lov balansi va savdo faoligini kuchaytirishdan iborat iqtisodiy maqsadlar uchungina emas, balki ta'sir ko'rsatish vositasi xam bo'lib qolmoqda.

Inson iqtisodiy faoliyatida qishloq xo'jaligi tabiiy muxit bilan chambarchas bog'langan soxadir. Keyingi yillarda ITI natijasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida muxim sifat o'zgarishlari yuz berganligiga qaramay tabiiy sharoitga bog'liq xolatlar saqlanib qolmoqda.

Tabiiy sharoit na faqat qishloq xo'jaligi tarmoqlari yo'nalishigina emas, balki qishloq xo'jalik maxsulotlari yetishtirish xajmlariga ta'sir etadi. Tabiiy shart-sharoit avvalo:

- qishloq xo'jaligining asosi xisoblangan yer resurslarini;
- o'simliklarning vegetatsiya davri uchun xayotiy zarur bo'lgan agroiklimiy resurslar – issiqlik, nam va yorug'likning o'zaro uyg'unlashuvini;
- tuproqning tabiiy unumdorligi, melioratsiya va irrigatsiya imkoniyatlarini;
- chorvachilikning ozuqa bazasi xisoblangan tabiiy o'tloq va yaylovlarni o'z ichiga oladi.

qishloq xo'jaligi inson faoliyatida atrof-muxitga kuchli ta'sir etadigan soxadir. qishloq xo'jaligi rivojlanishi bilan tabiiy landshaft chuqur o'zgarishlarni boshidan kechiradi va madaniy landshaftga aylanadi. ITI sharoitida qishloq xo'jaligining atrof-muxitga ta'siri xaddan tashqari kuchaymoqda.

qishloq xo'jaligida yer resurslarini baxolash - yerlarni qishloq xo'jaligiga yaroqlilik (sifati) nuqtai-nazaridan sifatlash muxim o'rin tutadi. Yer sifatini baxolash (bonitrovka) ma'lum ma'noda iqtisodiy extiyojlardan kelib chiqadi va qishloq xo'jaligi faoliyatini olib borishda tabiiy xolat va meliorativ tadbirlarni xisobga olish imkonini beradi. Bunda istiqbol yo'nalishidagi iqtisodiy-ekologik talablarni xisobga olish xam g'oyat muximdir. CHunki, bugungi kunda, bevosita inson faoliyati tufayli o'rmonlarning ayovsiz kesilishi, qo'riq va bo'z yerlarning ommaviy o'zlashtirilishi, uquvsizlarcha meliorativ tadbirlar majmuasini amalga oshirish oqibatida unumdor yerlarning qishloq xo'jaligiga yaroqsiz xolga kelishi, errozion jarayonning kuchayishi va o'z navbatida maxalliy, regional va xalqaro ekologik vaziyatning keskinlashuviga xam olib kelmoqda.

qishloq xo'jaligida yer resurslarini sinflashtirishda ular bosh tiplarga: 1) dexqonchilikda ishlanadigan barcha qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar; 2) tabiiy

o'tloq va yaylovlar; 3) yaroqsiz kam foydalaniladigan yoki mutlaqo yaroqsiz yerlarga ajratiladi. Yuqoridagi barcha tip maydonlar yer sharining 1/3 qismini yoki 4,5 mlrd. gektarni tashkil etadi. qishloq xo'jaligida ishlanadigan maydonlar esa 1,5 mlrd. gektardan (xaydaladigan yerlar 1 mlrd.ga, ko'p yillik o'simliklar esa 0,5 mlrd.ga) iborat. Ishlanadigan maydonlarning 16% MDX ga, 10% Yevropaga (Rossiyaning Yevropa qismidan tashqari), 32% Xorijiy Osiyoga, 16% SHimoliy Amerikaga, 9% Lotin Amerikasiga, 3% Avstraliya va Okeaniyaga, 14% Afrikaga to'g'ri keladi. Yevropa deyarli xaydalganlik darajasi yuqoriligi, yer resurslari zaxiralarining chegaralanganligi bilan ajralib tursa, Xorijiy Osiyo, Lotin Amerikasi, Afrika chul va chala cho'l, tog'li rel'efga egaligi xamda katta yer fondi zaxiralari mavjudligi bilan ajralib turadi. Ammo, bu xududlarni o'zlashtirish tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar xamda katta sarf-xarajat bog'liqdir.

Agroiqlimiy va tuproq qoplami yer sharining umumiy qonuniyatlari asosida zonallik va tik (vertikal) mintaqalilik qonuniyatlari asosida tarqalgandir. Issiq, mo'tadil va sovuq mintaqa zonolari aloxida ajralib turadi. (8-jadval). Faol temperatura summasi ($q_{10^{\circ} S}$ dan yuqori) $200^{\circ} S$ dan to $4000^{\circ} S$ va $1000^{\circ} S$ dan $2000^{\circ} S$ bo'lgan zonalarda, ya'ni birinchi zonada o'rmon-qo'ng'ir, qora va kashtan tuproqlar, ikkinchi zonada o'rmon kulrang va podzol tuproqlar tarqalgandir. Mavjud agroiqlimiy va tuproq resurslari ITI yutuqlaridan oqilona foydalanilgan xolda barcha mamlakat va regionlarda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini rivojlantirish imkonini beradi.

3. Ziroatchilik va uning tarmoq tarkibi

Barcha mamlakatlarda va regionlarda ziroatchilik tarmoqlari qishloq xo'jaligining, umuman iqtisodiyotning muxim tarmog'i sifatida katta o'rin tutadi. Ziroatchilikning muxim tarmoqlari don xo'jaligi, texnika ekinlari, sabzavotchilik va kartoshkachilik, bog'dorchilik va uzumchilikdir. Bu va boshqa yanada tabaqalashgan ziroatchilik tarmoqlarining bulinishi shartlidir. Ziroatchilik oziq-ovqatning asosiy qismini bir yillik o'simliklar beradi. (don, texnika ekinlari, sabzavot va boshq.)

qadimdan ziroatchilikning ikki tipi-sug'orma va nosugorma (lalmikor) dexqonchilik mavjuddir. Sug'orma dexqonchilik maydonlari 230 mln. gektar bo'lib, ziroatchilik maxsulotlarining 50% beradi. Yer shari bo'yicha 30% sug'oriladigan maydonlar Xitoy, 14%, Xindistonga, to'g'ri keladi, shuningdek AQSH, Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlari (O'zbekiston), Pokiston, Meksika, Italiya, Avstraliya mamlakatlarida xam katta sugoriladigan maydonlar mavjuddir.

Keyingi yillarda qurg'oqchil va yog'inlarning mavsumiyligiga bog'liq bo'lmagan mo'tadil va tropik mintaqalarda sug'orma dexqonchilik yuqori va barqaror xosil olish maqsadida kengaytirilmoqda.

Don xo'jaligi. Xilma-xil donli ekinlar 500 mln.gektarni tashkil etadi. Donli ekinlar CHekka SHimoldan tashqari deyarli axolining joylashishiga mos barcha xududlarda yetishtiriladi. Don xam mayda dexqon xo'jaliklarida xam yuqori darajada mexanizatsiyalashgan fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jalik korxonalarida yetishtiriladi. Donli ekinlar yetishtirishga axoli mexnat an'alariga nisbatan xam agroiklimiy omillarning ta'siri kuchli. CHunonchi, bug'doy uchun eng past temperatura 4-5°S, atrofida, faol temperatura summasi esa 1150°S to 1700°S, makkajo'xori uchun esa yuqoridagiga mos xolda 10°S, va 2100-2900°S, sholi uchun 12-15°S va faol temperatura summasi 2200°-3200° bo'lishi kerak.

Donli ekinlar orasida keng tarqalgani-bug'doy, makkajo'xori va sholi bo'lib, dunyo bo'yicha yetishtiriladigan donning 3/4 qismini tashkil qiladi. Bug'doy - SHimoliy Amerika, Farbiyva SHarqiy Yevropa mamlakatlari, Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari, Rossiya, Ukraina, qozog'iston va boshqa davlatlarda asosiy oziq-ovqat sifatida SHimoliy Amerika va Lotin Amerikasida, sholi esa SHarqiy, Janubiy va Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlarida yetishtiriladi.

Dunyo bo'yicha yetishtirilgan 75% don uchta asosiy «non»-bug'doy, makkajo'xori va sholi xissasiga to'g'ri keladi.

Donli ekinlar orasida bug'doy 200-230 mln.gektardan ortiq yerga ekiladi. Xosildorlik, ayniqsa, Farbiy Yevropa mamlakatlarida yuqori 45-50 ts/ga bo'lsa, SHimoliy Amerikada 40-45 ts/ga, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida 20-25 ts/ga, SHarqiy Yevropa mamlakatlarida 40 ts/ga va Rossiyada 20 ts/ga tashkil qiladi.

FarbiyEvropa mamlakatlaridagi don yetishtiruvchi xo'jaliklar yuqori intensivlashgan tovar xo'jaliklari sifatida ajralib turadi. Lotin Amerikasida yirik tovar xo'jaliklari La-Plata daryosi xavzasidagi unumdor Lampa-Argentinada joylashgandir. Dunyo mamlakatlari bo'yicha yiliga o'rtacha 550-600 mln. t, bug'doy olinadi va yiliga 100 mln.t. bug'doy (unga xisoblaganda) xalqaro bozorga chiqariladi.

XX asrdagi don (bug'doy) xo'jaligining rivojlanish jarayoni shu bilan izoxlanadiki, ikkinchi jaxon urushiga qadar xalqaro bozorga unchalik ilg'or bo'lmagan mamlakatlar don eksport qilgan va sanoatlashgan bosh mamlakatlar import qilgan bo'lsa, xozirgi kunda mutlaqo boshqacha manzara, ya'ni sanoatlashgan «SHimol»dan agrar «Janub»ga katta don oqimi yunalgandir. Xatto uzoq yillar don import qilgan Buyuk Britaniya eksportyor (axoli jon boshiga 0,12 ga ishlanadigan maydon to'g'ri kelgani xolda yiliga 3 mln.t. don chiqarmoqda) mamlakatga aylandi. FarbiyEvropa mamlakatlari don xo'jaliklarini intensivfikatsiyalash negizida (sarflangan mexnat va kapitalni oqlash uchun) 60 ts/ga va undan yuqori xosil olish uchun intilmoqdalar. Birgina Frantsiyada butun Afrikaga nisbatan 4 marta ko'p bug'doy yetishtiriladi.

Dunyo agroiqlimiy va tuproq resurslari.

Iqlimiy mintaqalar	Turli darajada namlanadigan zonalar		
	Namlik, NK-1,0 (gumid)	qurg'ochil, NK-1,0-0,33 (semigumid va semiarid)	quruq, NK-0,33 (arid)
Asosiy tuproq tiplari.			
Arktika va subarktika, S<1000°S 0°S dan past	gleyli tundra tuproqlari	Arktika tuproqlari	-

Mo''tadil, S-1000-4000°S, t_s -0dan q 13°S.	o'rmon-qo'ng'ir, podzol', podzollashgan qora tuproqlar	qora tuproq, to'q kashtan va kashtan tuproqlar	sur kashtan, kulrang- qo'ng'ir tuproqlar, qumlar
Subtropik, S-4000-8000°S t_s - q13 dan q20°S gacha	sarg'ish, qizg'ish tuproqlar.	qo'ng'ir va kulrang- qo'ng'ir tuproqlar	kulrang, sho'rxok tuproqlar, qumlar
Tropik, S>-8000 °S t_s - q 20°S.	ferralativ qizil va qizg'ish-sariq o'rmon, o'rmon- savanna tuproqlari	ferralativ, qo'ng'ir- qizil va qizil-qo'ng'ir savannalar	ferralativ va siallit qizg'ish -qo'ng'ir cho'l, sho'rxok va sho'rtob tuproqlar, qumlar.

S - xavo temperaturasi yillik q10 °S dan yuqori bo'lgan davr.

t_s - yillik o'rtacha temperatura.

NK - namlik koeffitsienti - yillik yog'in va bug'lanishga nisbatan.

Ixtisoslashgan bug'doy yetishtiruvchi yuqori tovar xo'jaliklari FarbiyEvropa mamlakatlari, AQSH (bug'doykor mintaq), va Kanada (cho'l provintsiyalari, Argentina (Pampa), Avstraliya va qozog'istonda (qo'riq va bo'z yerlar) shakllangan.

Dunyo bo'yicha makkajo'xori maydonlari 120 mln.gektardan ortadi va 30% ekin maydonlari AQSH xamda makkajo'xori vatani Lotin Amerikasiga to'g'ri keladi. Makkajo'xori yetishtiruvchi yirik rayon Argentina - Pampasida (Buenos-Ayresdan SHimoli-/arbdagi rayonlarda) shakllangan. AQSHda makkajo'xori yetishtirish yuksak darajada mexanizatsiyalashgan bo'lib xosildorlik gektaridan 65-70 tsentnemi tashkil qiladi va dunyo bo'yicha makkajo'xori doni eksportining 70% i AQSHga to'g'ri keladi va AQSHda 200 mln.t. ortiq makkajo'xori doni yig'ishtirib olinadi.

Dunyo bo'yicha yiliga 500 mln.t. dan ortiq makkajo'xori doni yig'ishtirib olinadi. Makkajo'xori shuningdek, FarbiyEvropa mamlakatlari, boshqa sanoati rivojlangan mamlakatlar, SHarqiy Yevropa mamlakatlari xamda MDX davlatlarida yetishtiriladi. Makkajo'xori doni yetishtirishda ikkinchi va uchinchi o'rinda Xitoy va Braziliya turadi, Afrikada-Keniya, Angola, Mozambik, Malavi va boshq. mamlakatlarda yetishtiriladi. Osiyo, Afrika mamlakatlarida makkajo'xori xosildorligi ancha past ekanligi bilan (4-10 ts/ga) ajralib turadi. Vengriya, Ruminiya, Moldovada makkajo'xori doni oziq-ovqat sifatida keng foydalanadi.

SHoli asosan sug'orishni talab qiluvchi o'simlik bo'lsada, yiliga 1500-2000 mm yog'in yog'uvchi rayonlarda (Mussonli Osiyo) uni sugormay yetishtirish mumkin. Nixoyatda ko'p qo'l mexnatini talab qiluvchi o'simlik. SHoli asosan Janubiy, Janubiy-SHarqiy Osiyodagi xalqlarning nafaqat asosiy oziq-ovqati bo'libgina qolmay, balki kundalik turmush xayotida xam katta o'rin tutadi. SHuningdek, sholi Yaponiya, Xitoy, Rossiya va Markaziy Osiyo, Janubiy Osiyo, Janubiy-FarbiyOsiyodagi daryo vodiylari, Afrika, SHimoliy Amerika (AQSH), FarbiyEvropa (Italiya, Ispaniya, Portugaliya), Avstraliya shuningdek Lotin Amerikasida yetishtiriladi. Xosildorlik ayniqsa, SHimoliy Amerikada (AQSH) va Yaponiyada yuqoridir. (50-60 ts/ga). Yiliga 450-500 mln.t. sholi olinadi. SHuning 30% dan ortig'i Xitoyga, 20% ga yaqini Xindistonga to'g'ri keladi. Birgina Tailandda butun Afrikada yetishtiriladigan sholiga nisbatan 2 marta ko'p xosil olinadi.

Evropa mamlakatlarida donli ekinlardan roj, arpa, tariq, Osiyo va Afrikada qo'noq, xilma-xil maxalliy dukkakli va boshqali ekinlar yetishtiriladi. 60-70-yillarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida oziq-ovqat muammosini xal qilish maqsadida amalga oshirilgan "Ko'k inqilob" rejasiga muvofiq sholi yetishtirishni xam keskin ko'paytirish vazifa qilib qo'yildi. SHu asosda yangi yuqori navli tez pishar, bo'tasimon uruglar, mineral o'g'itlar, yuqori agrotexnika qo'llash asosida sholidan yiliga ikki va xatto uch marta xosil olish imkoniyatlari yuzaga keldi. Irrigatsion tarmoqlar kengaytirildi. Donchilik xo'jaliklariga davlat yordamining

kuchayishi oqibatida oziq-ovqat muammosini xal qilishda muayyan yutuqlarga erishildi.

Dunyo bo'yicha yetishtirilgan donning (1,3-2,0 mlrd.t) 40% dan ortig'i iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar xissasiga to'g'ri keladi. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi mamlakatlarda don yetishtirish 900 mln.t. ortganligiga qaramay, oziq-ovqat muammosi keskin turibdi. Donli ekinlar xalqaro savdoda muxim o'rin tutadi. (180 mln.t.).

Asosiy don eksport qiluvchi mamlakatlar 20 taga yetmagani xolda 100 dan ortiq mamlakatlar don import qiladi. Asosiy bug'doy eksport qiluvchi mamlakatlar SHimoliy Amerika (AQSH va Kanada), Argentina, Avstraliya bo'lsa, makkajo'xori yem sifatida AQSH, sholi-gurunch, Janubiy va Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari tomonidan eksport qilinadi.

Don import qiluvchi mamlakatlar Osiyo, Yaponiya, Xitoy, Xindiston, Pokiston, Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlar, Rossiya, Markaziy Osiyo davlatlaridir. Yevropa mamlakatlari asosan yem uchun makkajo'xori va arpa import qiladi.

Texnika ekinlari. Texnika ekinlari- qandli, tolali, moyli va «rag'batlantiruvchi» (choy, kofe, kakao) kauchuksimon guruxlarga bo'linadi. Bu o'simliklar asosan issiqsevar, sermexnat va yuqori tovarlilik bilan ajralib turadi. Bu ekinlar deyarli tropik va subtropik mintaqalarda bo'lib, «mustamlaka ekin» lari deb xam yuritiladi.

qandli o'simliklar orasida shakar qamish va qand lavlagi aloxida o'rin tutadi. XX asr boshlariga qadar qand-shakar sanoatida qand lavlagi asosiy o'rin tutgan bo'lsa, keyinchalik shakar qamish muxim o'rin tuta boshladi. SHakar kamish ko'p yillik o'simlik bo'lib issiq, nam va kuyoshni juda yaxshi ko'radi. Sermexnat bo'lib, katta maydonlarida yetishtiriladi. SHakar zavodlari esa xom-ashyo rayonlarida joylashgan. SHakar qamish asosan tropik va subtropik mintaqalarda tarqalgan. SHimoliy va Markaziy Amerika (Kuba, Meksika, AQSH, Karib xavzasidagi orollar), Janubiy Amerika (Braziliya, Argentina, Peru) Osiyo, (Xindiston, Xitoy,

Fillipin), Afrika (JAR, Misr, Mavrikiy oroli), Okeaniya (Gavayi orollarida), Avstraliyada yirik plantatsiya xo'jaliklarida shakarqamish yetishtiriladi.

qand lavlagi esa mo''tadil mintaqalarda ayniqsa, Yevropaning o'rta mintaqasida, Rossiya, Ukraina, Belarus', Pol'sha, CHexiya, Slovakiya, Ruminiya, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya va AQSHda yetishtiriladi. qand lavlagi chorvachilik bilan uyg'unlashgan xolda rivojlangan. Dunyo bo'yicha yiliga 120 mln.t. shakar yetishtirilmoqda. Buning 50% rivojlanayotgan mamlakatlar xissasiga to'g'ri keladi, yiliga 8-9 mln.t. dan Kuba, Braziliya va Xindiston, 5-6 mln.t. AQSH, CHili va 4 mln.t. ortiq Frantsiya shakar ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarilayotgan shakarning 60% shakar qamish va 40% kand lavlagi xissasiga to'g'ri keladi.

Texnika ekinlari tarkibida tamaki yetishtirish aloxida o'rin tutadi. Mutaxassislarning ta'kidlashicha birorta ekinning bozor narxi tamaki singari tuproq tarkibiga bog'liq emas. Xatto ozginagina tuproq tarkibining o'zgarishi uning xushbuyligi, rangi va tamaki bargining yoyilishiga (tekstura) kuchli ta'sir qiladiki bu xosil xajmiga xam nisbatan olinadigan foydani belgilab beradi. Xuddi shu xususiyat AQSH Janubida (Virginiya, SHimoliy va Janubiy Karolina) va Kentukki shtatida yirik tamakichilik mintaqasini shakllanishiga va rivojlanishiga olib keldi. Bu xududdagi tuproq tarkibi ayniqsa, mashxur Virginiya navini yetishtirish imkonini beradi. Bu mintaqa xozir xam dunyodagi yirik tamaki va tamaki maxsulotlarini eksport qiluvchi (AQSH yiliga 250 ming.t.eksport qiladi) mintaqa bo'lsa-da, 1990 yildan boshlab o'zining o'rnini Xitoyga (dunyodagi 33% tamaki yetishtirish to'g'ri keladi) bo'shatib bermoqda. AQSH xissasiga esa dunyoda yetishtirilayotgan 7,1 mln.t. tamakining 10% to'g'ri keladi. SHuningdek, Rossiya, qirg'iziston va boshqa mamlakatlarda xam tamaki yetishtiriladi.

Tolali o'simliklar o'rtasida- paxta aloxida o'rin tutadi. Paxtachilik to'qimachilik sanoati ishlatadigan tolalarning 50-60% ini beradi. Paxta yetishtiruvchi rayonlarda paxta moyi olish xam muxim ahamiyatga molikdir. Paxtani dastlabki qayta ishlamay (tola va chigitini ajratmay) uzoqqa olib borish o'zini iqtisodiy jixatdan oqlamaydi. SHuning uchun xam paxta tozalash zavodlari

paxtakor rayonlarda joylashgan. Xar bir tonna paxtadan 350-400 kg tola olinadi. Paxta tolasini uzoqqa tashib borish qulayligi uchun to'qimachilik fabrikalari paxtakor rayonlardan minglab km. uzoqlikda, iste'mol rayonlarda joylashgandir. Paxta asosan 20° va 40° SHimoliy kenglik orasida quruq subtropik mintaqalarda yetishtiriladi. Paxta sug'orib (O'zbekiston, qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, qozog'iston, Misr) xamda sug'ormay (AQSH) yetishtiriladi. Yiliga dunyo bo'yicha 19-20 mln.t. paxta tolasini yetishtiriladi.

Eng yirik paxta tolasini yetishtiruvchi mamlakatlar AQSH - 2,5 mln.t. O'zbekiston va Xitoy 1,5-2,5 mln.t., Xindiston - 1,5 mln.t. bo'lib, shuningdek Turkiya, Pokiston, Braziliya, Meksika, Perudir. (xar ikkala mamlakat qimmatbaxo, ingichka tolali paxta yetishtiradi.), Xalqaro bozorga 4,5-5 mln.t. paxta tolasini chiqariladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda yetishtirilgan paxtaning 50-75% chiqariladi. (Xindiston eksportga chiqarilgan paxta tolasiga nisbatan ko'proq import qiladi). Yevropadagi mamlakatlar 2 mln.t. ortiq paxta tolasini, Yaponiya - 800-900 ming tonna paxta tolasini import qiladi. Xitoy-yirik paxta yetishtiruvchi mamlakat bo'lishiga qaramay zo'rg'a o'z ehtiyojlarini qondiradi.

Tolali o'simliklardan jut va sizal o'simliklari xilma-xil texnik maqsadlarda ishlatiluvchi materiallar olishda foydalaniladi. Jut-Xitoy va Xindistonda (1,5-2 mln.t. dan), Bangladeshda (500-600 ming.t.) yetishtirilsa (dunyo bo'yicha 4,5-5 mln.t.), sizal (agava bargidan olinadi) Braziliya (200 ming.t.) va Tanzaniyada (400 ming.t.) yetishtiriladi. Dunyo bo'yicha 500-600 ming.t. sizal ishlab chiqariladi.

Moyli o'simliklar - o'simlik moyi olishda va oziq-ovqat sanoatida keng foydalaniladi. Moyli o'simliklar - asosan bir yillik o'simliklar -kungaboqar, soya, yer yongok (araxis), paxta, zig'ir, raps, kunjut, no'xot xamda ko'p yillik o'simliklar (zaytun daraxti, moyli va kokos pal'masi, tunyu daraxti va boshq.) bo'lib, xar birining joylashish xususiyati bir-biridan farq qiladi. Iqtisodiy jihatidan bir yillik moyli o'simliklar aloxida ahamiyatga ega. Yiliga dunyo bo'yicha 60-65 mln.t. o'simlik moyi ishlab chiqariladi. Eng yirik o'simlik moyi iste'mol qiluvchi mamlakatlar AQSH, Kanada, Rossiya, O'zbekiston, Ukraina, Xitoy, Xindistondir.

Kungaboqar yetishtirish Rossiya, Ukraina, SHarqiy Yevropa mamlakatlari Argentina va Urugvayda, Soya-vatani SHarqiy Osiyoda (Xitoy va Koreya yarim oroli) bo'lishiga qaramay keyingi yillarda - qimmatbaxo oziq-ovqat va yem-xashak ekini sifatida AQSH, Rossiya, Braziliya va tropik mamlakatlarda keng tarqaldi. Yiliga 90-100 mln.t. soya yetishtiriladi. Buning 50% ortig'i AQSHga, 20% Xitoy xissasiga to'g'ri keladi. Zigir yetishtiruvchi asosiy rayonlar AQSH, Kanada, Argentina, Xindiston, Rossiyada yer yong'oq, raps, kunjut esa subtropik mamlakatlarda yetishtirilmoqda.

Ko'p yillik moyli o'simliklardan zaytun daraxti O'rta dengiz qirg'oq bo'yi rayonlarda (Ispaniya, Italiya, Tunis, Marokko, Turkiya), kopr (koks yong'og'ini quritib koks moyi olinadi) tropik mamlakatlarda (Filippin, Indoneziya, Xindiston, Okeaniya orollari), pal'ma moyi-tropik Afrikada (S'erra-Leone, Nigeriya), Malayziya, Indoneziyada yetishtiriladi.

«Rag'batlantiruvchi» o'simliklar - choy, kofe, kakao rivojlanayotgan mamlakatlarning eksport maxsulotlari bo'lib «kolonial o'simliklar» nomi bilan mashxurdir. Bu ekinlar tropik, qisman subtropiklarda (choy), sernam rayonlarda yetishtiriladi va mo'tadil mintaqalarda iste'mol qilinadi. CHoy bargi asosan Osiyoda yetishtiriladi (vatani Xitoy bo'lib, Yevropaga XVII asrda ma'lum bo'ldi). Yiliga 1,8-2,0 mln.t. choy bargi yig'ishtirib olinadi. Buning 50% Xindiston va SHri-Lankaga to'g'ri keladi. SHunigdek, Xitoy, Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlari, Turkiya, Ozarbayjon, Gruziya (Adjariya), Afrikada-Keniya xam choy yetishtiruvchi mamlakatlardir.

Kofe - deyarli tropik rayonlar o'simligi bo'lib, plantatsiya xo'jaliklarida yetishtiriladi. Kofe vatani Afrika bo'lsada, butun dunyoda yetishtirilayotgan kofening 2/3 qismi Lotin Amerikasiga (Braziliya 1,8 mln.t., Kolumbiya 0,7 mln.t.) to'g'ri keladi. Markaziy Afrika (Efiopiya), Markaziy Amerika (Meksika) yirik kofe plantatsiyalariga egadir. Yiliga dunyo bo'yicha 5-6 mln.t. kofe yetishtiriladi.

Kakao - konditer sanoatining muxim xom-ashyosi sifatida Afrikada (g'arbiy qismi) va Braziliyada yetishtiriladi. Dunyo bo'yicha 1,5-2,0 mln.t. kakao boshog'i

yig'ishtirib olinadi. Vatani Lotin Amerikasi bo'lishiga qaramay asosiy ishlab chiqarish Gvineya qirg'oq bo'yiga (Afrika) to'plangan.

Kauchuksimon daraxtlardan (gevaya), kauchuk (lateks) yig'ishtirib olinadi. Braziliyada (Amazonka daryosi xavzasi) xamda ikkinchi jaxon urushidan so'ng Janubiy-SHarqiy va Janubiy Osiyoda xarakterlidir. Yiliga 4-4,5 mln.t. tabiiy kauchuk yig'ishtirib olinadi.

Sabzavotchilik va kartoshkachilik deyarli barcha mamlakatlarda keng tarqalgani bilan ajralib turadi. Sabzavot va kartoshka axoli oziq-ovqat ratsionida katta o'rin tutadi. Kartoshka ko'pchilik mamlakatlarda «ikkinchi non» sifatida yetishtiriladi xamda texnik maqsadlarda xam ishlatiladi. Yiliga 400-450 mln.t. kartoshka yig'ishtirib olinadi. Ertangi kartoshka va sabzavot muxim eksport maxsulotlari xisoblanadi. Kartoshka yetishtirish SHimoliy Amerika, Yevropa mamlakatlarida, shirin kartoshka (batat) esa tropik mamlakatlarda keng tarqalgandir.

Bog'dorchilik-subtropik va tropik mintaqada, uzumchilik-subtropik mintaqada keng tarqalgan. Bog'dorchilik va uzumchilik plantatsiya xo'jalik shaklida bo'lib, yuqori tovar qiymatiga egaligi bilan ajralib turadi. Yirik bog'dorchilik va uzumchilik mintaqalari - O'rta dengiz qirg'oq bo'yi (Ispaniya, Italiya, Frantsiya, Yugoslaviya, Bolgariya), AQSH (Kaliforniya), Markaziy Osiyoda (O'zbekiston) shakllangan. Dunyo bo'yicha yiliga 360-400 mln.t. meva yig'ishtirib olinadi, buning 60 mln.t. tsitrus mevalaridir. TSitrus mevalari AQSH, O'rta dengiz va Karib xavzalari mamlakatlarida ko'plab yetishtiriladi.

Bog'dorchilik va uzumchilikning tez rivojlanganligi qayta ishlash sanoatini xam ixtisoslashgan transport vositalarining yuzaga kelishiga olib keldi. SHuningdek, bog'dorchilik va uzumchilik maxsulotlari (xam yangi xolda xam qayta ishlangan xolda) xalqaro savdoda muxim o'rin tutmoqda. Ko'pgina mintaqalarda bog'dorchilik va uzumchilik xam ichki xam tashqi bozor (AQSHda Kaliforniya, O'zbekistonda - Farg'ona vodiysi, O'rta Dengiz qirg'oq bo'yi va boshq.) yo'nalishdadir.

4. CHorvachilik va uning tarmoq tarkibi

Qishloq xo'jaligining chorvachilik tarmog'ida quyidagi chorvachilik tiplari keng tarqalgan. a) aralash tog' qishloq xo'jaligi - boy va maxsuldor tabiiy o'tlov va o'tloqlar, vertikal (tik) mintaqalilik asosida sertarmoq yo'nalish xarakterli. Don xo'jaligi, bog'dorchilik va chorvachilik deyarli bir xil axamiyatga egadir;

b) rancho chorvachiligi - asosan rivojlangan ishlab chiqarish munosabatlari ko'chirma qilingan mamlakatlardagi (Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR, Kanada) va Argentina, Braziliya eksport uchun don yo'nalishidagi xo'jaliklarda (o'n minglab gektar xududlarda) jun, qo'y go'shti va mol go'shti yetishtirishga ixtisoslashgandir;

v) yaylov chorvachiligi - xududiy jixatdan juda katta bo'lib uzoq oraliqda xayvonlarni boqib yurishdir. Janubiy-FarbiyOsiyo, Afrika shimoli, AQSH (g'arbiy shtatlar), Lotin Amerikasi (Braziliya, Argentina), Meksika, Markaziy Osiyo davlatlari, Mo'g'uliston, Rossiya, Afgonistonda tarqalgan bo'lib, unga mayin va yarim mayin qo'ychilik, echkichilik, tuyachilikdan iborat ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi xo'jaliklar kiradi. Bu xududlarda yaylov chorvachiligi minglab km. oraliqdagi migratsion (xatto Afrika shimolida-davlatlararo) xarakatlar bilan bog'liq;

g) ekstremal sharoitdagi tundra va tundra yoni bug'uchilik xo'jaliklari - Rossiya (chekka SHimol), Kanada, AQSHda (Alyaska) keng tarqalgan bo'lib chekka shimol xalqlari turmushida muxim o'rin tutadi;

d) mo''tadil mintaqalarda aralash intensiv dexqonchilik-chorvachilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar- yuqori tovar xo'jaliklari bo'lib, turli yo'nalishdagi agrar va agrosanoat korxonalaridan iborat. FarbiyEvropa, SHarqiy Yevropa, Rossiya uchun xarakterlidir;

e) sut xo'jaliklari - deyarli iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda tarqalgan bo'lib AQSH, FarbiyEvropa (Buyuk Britaniya, Frantsiya, GFR, Finlyandiya, Daniya, Niderlandiya, va boshq.) qoramollar maxsuldorligining yuqoriligi (5000 kg.va undan yuqori, qora-ola zotidan sut sog'ib olinadi va uning yog'lilik darajasi

4,35% tashkil qiladi) bilan ajralib turadi. 1995 yil dunyo bo'yicha 500 mln.t.ortiq sut sog'ib olingan bo'lsa (450 mln.t. mol suti) buning 25% FarbiyEvropa mamlakatlariga, 13% AQSH va 15% MDX mamlakatlari xissasiga to'g'ri keladi;

j) shaxar atrofi xo'jaligi - yirik shaxar va shaxar aglomeratsiyalarni tez buziluvchi sabzavot, meva, sut, tuxum bilan ta'minlashga qaratilgandir. SHaxar atrofi xo'jaligi ikki yo'nalishdan: a) meva, ildiz mevalar, sabzavotlar bilan ta'minlovchi ko'p sonli dexqon va fermerlar; b) sanoat-xarakteridagi yirik qishloq xo'jaligi korxonalari -sut, tuxum «fabrika» lari, yirik teplitsa va parnik xo'jaliklaridan iborat.

SHaxar atrofi xo'jaligi keyingi yillarda ITI ta'sirida (transport) yangi jarayonlarni boshidan kechirmoqda. Agar ilgari 150 km.dan flyagalarda sut olib kelingan bo'lsa, endilikda avtorefrejatorlarda -1500 km.dan olib kelinmoqda. Tez buziladigan shaftoli, qulupnay, gul va boshq. samolyotlar bilan (gul-Keniya) tashilmoqda. SHaxar atrofi xo'jaligi yirik shaxarlarni jumladan 18 mln.axoliga ega N'yu-Yorkni 40% sabzavotga bo'lgan extiyojini qoplaydi. (kartoshka va cho'chqa go'shtiga bo'lgan extiyojini esa -2% qoplaydi). Umuman shaxar atrofi xo'jaligi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yuqori samaradorlikka egaligi bilan ajralib turadi.

qishloq xo'jaligi tarmoqlari o'rtasida chorvachilik muxim o'rin tutadi. U axolini kundalik zarur maxsulotlar -sut, sut maxsulotlari va go'sht bilan ta'minlabgina qolmay, sanoat va meditsina uchun xam zarur bo'lgan maxsulotlar (jun, teri, suyak, kon va boshq.) yetkazib beradi. Keyingi yillarda chorvachilikning ixtisoslashuv jarayoni kuchaydi. Go'sht, sut, jun-go'sht-teri yo'nalishidagi chorvachilik ma'lum xududlarda rivojlanmoqda. Iqtisodiy jixatdan rivojlangan mamlakatlar va xududlarda chorvachilik rivojlanishi intensiv yo'nalishga ega bo'lsa, Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasida bir qator mamlakatlarda ekstensiv yo'nalishga egadir. SHunisi xarakterliki, jaxon chorvachilik maxsulotlari asosiy qismini mu'tadil mintaqadagi mamlakatlar yetkazib beradi.

CHorvachilikning asosini ozuqa bazasi tashkil qiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ozuqaning asosiy qismini ziroatchilik yetkazib beradi. Ko'pgina

mamlakatlarda (GFR) ziroatchilik chorvachilik manfaatlariga bo'ysunganligi bilan ajralib turadi. Ziroatchilikda almashlab ekishda makkajo'xori, bir yillik turli o'tlar, beda, ildizmevalar (xashaki lavlagi) chorvachilik ozuqa bazasini xilma-xil bo'lishiga olib keladi. Axoli zich rayonlarda tabiiy o'tloq va yaylovlari chegaralangan.

Intensiv va ekstensiv yo'nalishdagi chorvachilik SHimoliy Amerika uchun xos. (AQSH, Kanada). AQSHning qurg'oqchil rayonlari, Argentina, Meksika, Avstraliya va JARda chorvachilik mintaqalari, ya'ni juda katta tabiiy yaylovlar va ixtisoslashgan boquv punktlari rivojlangan. Osiyo, Afrikada (Janubiy-FarbiyOsiyo, Mo'g'uliston, SHimoliy, Farbiyva SHimoliy Afrika) chorvachilik ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi shaklida rivojlangandir.

CHorvachilik-yirik shoxli xayvonlar (qoramolchilik), qo'ychilik va echkichilik, cho'chqachilik, yilkichilik, parrandachilik soxalaridan iborat.

Yirik shoxli xayvonlar - deyarli barcha mamlakatlarda va xududlarda rivojlangandir. Dunyo bo'yicha 90-yillar boshlarida yirik shoxli xayvonlarning umumiy soni 1,4 mlrd. boshdan ortib ketdi. Yuqori maxsuldor zotli qoramolchilik Yevropa, SHimoliy Amerika, Avstraliya iqtisodiyotida muxim o'rin tutadi. Lotin Amerikasida tovar chorvachligi Argentina, Urugvay, Braziliyaning janubida rivojlangan. Xindistonda yirik shoxli xayvonlar (200 mln.bosh) ko'p bo'lishiga qaramay, ish xayvonlari sifatida (diniy qarashlar bilan bog'liq xolda, molning go'shti yeyilmaydi, suti ichilmaydi) foydalaniladi. Afrikaning ko'pgina rayonlarida xam chorvachilik maxsuldorligi past bo'lib, asosan ishchi xayvon sifatida foydalaniladi.

qoramolchilikda ikkita yo'nalish-sut-go'sht yo'nalishi shaxar atrofi xo'jaliklarida, iqtisodiy rivojlangan mintaqalar va mamlakatlarda rivojlangan. Axoli zich, ozuqa tannarxi yuqori bo'lishiga qaramay, bu mintaqalarda-yog', pishloq va xilma-xil sut maxsulotlarini sanoat asoslarida tayyorlanadi, ichki va tashqi bozor uchun maxsulot yetkazib beriladi. (Niderlandiya, Daniya). Go'sht yo'nalishi tabiiy sharoiti qulay, yer resurslariga boy Argentina va Avstraliyada xam intensiv yem-xashak yetishtirish (makkajo'xori va soya) rivojlangan

rayonlarda (AQSH, Frantsiya) rivojlangandir. Yiliga dunyo bo'yicha 55-60 mln.t. go'sht yetishtiriladi.

qo'ychilik va echkichilik - deyarli ekstensiv xarakterga ega bo'lib, nam mo'tadil mintaqalar Yevropa, Yangi Zellandiya, Argentina, Urugvay, shuningdek, qurg'oqchil xududlar-Avstraliya, Xitoy, Xindiston, Eronda rivojlangandir. qo'ychilik va echkichilik go'sht-jun va go'sht yo'nalishi - AQSH, Buyuk Britaniya, Argentina, Braziliya, jun-yung yo'nalishi esa - Avstraliya, JAR, Namibiya, Argentina, Ispaniya mamlakatlari uchun xosdir. Mayin yung yetkazib beruvchi angor echkilari - Turkiya, Afg'oniston, Namibiya, O'zbekiston qozog'iston uchun xosdir. qorako'l qo'ylari Afg'oniston, O'zbekiston(Buxoro), Namibiyada tarqalgan. MDX xududida mayin junli qo'ychilik-Kavkaz oldi, Volga bo'yining qo'yi qismi, qozog'iston, dag'al junli qo'ylar O'zbekiston, qirg'iziston, Turkmaniston, Rossiyaning noqoratuproq mintaqasida tarqalgandir. Yung (tivit) beradigan echkichilik Ural yoni, Volga bo'yi, Don bo'yidagi quruq dasht rayonlarida, shuningdek butasimon yaylovlari bo'lgan tog' dashtlarida (Oltoy, qirg'iziston, Baykal orti) rivojlangan. qo'ychilik va echkichilik maxsulotining asosiy qismi jun-teridir. Yiliga dunyo bo'yicha 2,5-3 mln.t. jun tayyorlanadi. Buning asosiy qismi Avstraliya (800 ming.t.), Yangi Zellandiya (350 ming.t.), FarbiyEvropa va Argentinaga (100-150 ming.t.) to'g'ri keladi.

CHo'chqachilik- go'sht va yog' beradigan chorvachilikning eng tez maxsulot yetishtiradigan tarmog'idir. Intensiv dexqonchilik va aralash yem sanoatining rivojlanganligi cho'chqachilikni sanoat asoslarga o'tkazish imkonini berdi. Bugungi kunda ko'pchilik mamlakatlarda yirik cho'chqachilik majmualari mavjud. Dunyo bo'yicha cho'chqalar soni 850-900 mln.boshni tashkil qiladi. SHuning, 150 mln. boshi Xitoydadir. CHo'chqachilik Farbiyva SHarqiy Yevropa, Rossiya, Boltiq bo'yi, Ukraina, Belarus' xamda Lotin Amerikasida rivojlanayotgan mamlakatlardagi cho'chqalarning 75% tarqalgan. Islom dini mavjud mamlakatlarda cho'chqachilik unchalik rivojlangan emas.

Parrandachilik (tovuq, o'rdak, g'oz, kurka) go'sht va tuxum beradi. Parranda boqish ko'p jixatidan yemga, donga asoslanadi. Parrandachilik tarixan

yirik g'alla yetishtiruvchi mintaqalarda, xususan dasht va o'rmon dasht zonalarida bilan bog'liqdir. Parrandachilik chorvachilikning boshqa tarmoqlariga nisbatan bir muncha oldin sanoat asoslariga o'tdi. 50-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda yirik parrandachilik fabrikalari barpo etildi. Parrandachilik fabrikalari maxsulot iste'mol qiladigan rayonlarda, urbanizatsiyalashgan mintaqalar, yirik shaxarlar atrofi xamda g'allakor mintaqalarda joylashgandir.

SHuningdek, chorvachilik tarmoqlari o'rtasida yilqichilik xam muxim o'rin tutadi. Yilqichilik uchta yo'nalishga: a) zotdor yilqichilik; b) ot-ulov yilqichiligi; v) maxsulot beradigan yilqichilik; g) go'sht va biya suti shifobaxsh qimiz tayyorlanadi.

CHorvachilik tarmoqlar o'rtasida, qo'toschilik, tuyachilik, morolchilik, bug'uchilik xamda chorvachilikning o'ziga xos yem-xashak bazasiga ega bo'lgan tarmoqlari-asalarichilik, pillachilik, muynali parrandachilik va xovuz baliqchiligi xam iqtisodiy jixatdan muxim ahamiyatga egadir.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda chorvachilik taraqqiy etgan uchta mintaqani ajratish mumkin. 1) FarbiyEvropaning intensiv chorvachilik rivojlangan markaziy qismi-sut va go'sht-sut yo'nalishidagi qoramolchilik, cho'chqachilik va parrandachilik-Daniya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya, Bel'giya, SHveytsariya va bu mamlakatlarga qo'shni mamlakatlarning chegaradosh xududlari; 2) AQSH va Kanada -xilma-xil yo'nalishidagi chorvachilik rivojlangan mintaq; 3) Avstraliya va Yangi Zellandiya qaysiki yuqori maxsulot beruvchi ekstensiv yaylov xo'jaligi (jun va go'sht-jun qo'ychilik, qoramolchilik) rivojlangan bo'lib, yuqori darajada mexanizatsiyalashganligi bilan ajralib turadi. Yuqoridagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar axolisi jaxon axolisining 0,5% tashkil etgani xolda ularga dunyo bo'yicha qoramollarning 5%, qo'ylarning 15% to'g'ri keladi. Ular qariyb 30% jaxon bozoriga chiqarilayotgan xayvon yog'ini, 15% pishlok, 80% qo'y go'shti, 25% mol go'shti va 75% junni yetkazib beradi.

Lotin Amerikasi xam ekstensiv chorvachilik rivojlangan mintaqalardan biridir. Juda katta yerlarga egalik shakli - latifundiya keng tarqalgan. ayniqsa,

chorvachilik Argentina, Urugvay va Braziliyada rivojlangan. Go'sht va sut maxsulotlari axoli oziq-ovqat ratsionida pastligi bilan ajralib turadi. Afrikaning bir qator mamlakatlarida ekstensiv chorvachilik qishloq xo'jaligining asosi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, cho'l va chala cho'l mintaqalarida chorvachilik dexqonchilikdan tamomila ajralgan bo'lib, ko'chmanchi xolatdadir. qo'ychilik va echkichilik, tuyachilik xarakterlidir. Afrika jun eksport qiluvchi yirik mintaq bo'lib, xisoblanadi.

SHarqiy Yevropa mamlakatlarida chorvachilik intensiv yo'nalishidadir. Sut-go'sht chorvachiligi, cho'chqachilik va parrandachilik CHexiya, Slovakiya, Pol'shada, qo'ychilik Ruminiya va Vengriyada rivojlangan. Mo'g'uliston ekstensiv chorvachilik mintaqasi (qo'y, yirik shoxli xayvonlar, echki, ot) bo'lib, axoli jon boshiga chorva mollari to'g'ri kelishi jixatidan dunyodagi oldingi o'rinlardan birida turadi. Xitoyda qoramolchilik, g'arbiy viloyatlarida esa, yaylov chorvachiligi rivojlangan. Rossiya, Boltiq bo'yi, Ukraina, Belarus', Kavkaz orti, O'zbekiston, qirg'iziston, Turkmaniston va qozog'istonda qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, cho'chqachilik va parrandachilik rivojlangan.

5. Dunyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligi ijtimoiy - iqtisodiy tiplarining xususiyatlari

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligi intensivlash, mexanizatsiyalash va maxsuldorlilik darajasi, ishlab chiqarishni ixtisoslashuv va kontsentratsiyasi yuqoriligi xamda qishloq xo'jaligi monopoliyalari manfaatlariga buysunganligi-agrobiznes tobora kuchayib borayotganligi bilan xarakterlanadi. qishloq xo'jaligida o'rtacha va kichik fermer va dexqon xo'jaliklari monopolistik agrobiznesning tarkibiy qismi, uning qishloq joylardagi ishchi kuchi bo'lib qoldi. Bu mamlakatlarda deyarli chorvachilik, ziroatchilik bilan chambarchas bog'liq xolda rivojlanmoqda. Madaniy yaylovlardan keng foydalanib, yaylov maxsuldorligini barqaror ortib borishi, ayniqsa, shaxar atrofi xo'jaliklari uchun muxim axamiyat kasb etmoqda.

FarbiyEvropa qishloq xo'jaligi yuqori darajada intensivlashgani bilan ajralib turadi. Mineral o'g'itlardan foydalanish, xar 100 ga ishlanadigan yerga to'g'ri keladigan traktorlar soni, 1ga yerdan olinadigan maxsuldorlik SHimoliy Amerika qishloq xo'jaligi bilan bir xil. SHimoliy Amerika qishloq xo'jaligi katta maydonlarda yuqori xajmda qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan zonalarining (mintaqa) shakllanganligi bilan ajralib turadi. Masalan: AQSHda - sut chorvachiligi, sabzavot, nam va quruq subtropik mevalar yetishtiruvchi tor ixtisoslashgan qishloq xo'jalik mintaqalari shakllangan. Yaponiya qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan agrar isloxot oqibatida yirik mexanizatsiyalashgan xo'jaliklar (fermer) xukmron rol o'ynaydi. Boshqa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan farqli o'laroq, Yaponiya qishloq xo'jaligida ziroatchilik asosiy o'rin tutadi. Ziroatchilikda esa sholi yetishtirish bosh yo'nalishidir. SHoli - qishloq xo'jalik maxsulotining kariyib 50%dan ortig'ini beradi. Avstraliya, Yangi Zellandiya, JAR, Isroil qishloq xo'jaligi xam yuqori tovar qiymatiga egaligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Avstraliya qishloq xo'jaligi - eksport yo'nalishidadir.

Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida 50-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab qishloq xo'jaligini rivojlantirishga aloxida e'tibor berildi. Ammo yer resurslarining kamligi, Tuproq unumdorligining pastligi mexanizatsiyalash va kimyolashtirish darajasining bo'shligi, melioratsiya ishlarining amalga oshirishdagi iqtisodiy kiyinchiliklar, tez-tez bo'lib turadigan tabiiy ofatlar (qurg'oqchiliklar) oziq-ovqat muammosini xal qilishni doimiy sur'atda murakkablashuviga ta'sir qiladi. Argentina, Urugvay, Braziliya, Meksika kabi davlatlardan tashqari deyarli barcha mamlakatlar qishloq xo'jaligi tarkibida ziroatchilik bosh tarmoq bo'lib xisoblanadi.

Bu mamlakatlarda dexqon xo'jaliklarining ikki tipi mavjud:

1. Oziq-ovqat ekinlari (Janubiy va Janubiy-Osiyo mamlakatlarida sholi yetishtirish) yoki birdaniga bir necha xil qishloq xo'jalik ekinlari (xar bir qarich yerdan foydalangan xolda) yetishtiruvchi xo'jaliklar keng tarqalgan.

2. Nam-tropik o'rmonlar mintaqasida xanuz o't dalali ziroatchilik tizimining saqlanib qolishi tropik o'rmonlarning katta-katta xududlarda kesib yuborilishiga, tuproq eroziyasining kuchayishiga va tabiiy-ekologik sharoitni murakkablashuviga olib kelmoqda. Savannalarda esa makkajo'xori, boshqoli va dukkakli ekinlar o'stirilmoqda, shirin kartoshka (batat) va boshqa ekinlar yetishtiriladi.

Eksport qishloq xo'jalik maxsulotlari esa ko'p yillik tropik va subtropik ekinlarni yetishtiruvchi plantatsiya xo'jaliklarida yetishtiriladi. Plantatsiya xo'jaliklari xalqaro transmilliy korporatsiyalar bilan bog'liq bo'lib, iqtisodiy rivojlangan xo'jaliklaridir. Plantatsiya xo'jaliklarida banan, shakarqamish, paxta, xilma-xil tsitrus mevalari yetishtiriladi. Plantatsiya xo'jaliklari odatda port shaxarlar va qayta ishlovchi korxonalar bilan temir yo'l va avtomobil' yo'llari orqali bog'langandir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo'jaligi ko'p ukladli ekanligi bilan ajralib turadi. Yirik chet el kapitaliga karashli plantatsiya xo'jaliklari, yirik xo'jalik, o'rta va mayda dexqon xo'jaliklari va yerdan va boshqa resurslardan (yaylov) jamoa bo'lib foydalanish xarakterlidir. Keyingi yillarda bir qator mamlakatlarda (Xindiston va boshq) «ko'k inqilob» siyosatining (qishloq xo'jaligini rivojlantirish negizida oziq-ovqat muammosini xal qilish) amalga oshirilishi, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasini mustaxkamlash va qishloq xo'jalik maxsulotlarini ko'paytirish imkonini bermoqda.

SHarqiy Yevropa mamlakatlari qishloq xo'jaligi ekstensiv shakllardan intensiv shakllarga o'tish bilan xarakterlanadi. 80-yillarning ikkinchi yarmidan boshlangan muxim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida xam muxim o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Sotsialistik sektorni tashkil qiluvchi xo'jaliklar o'rnida, dexqon va fermer xo'jaliklari, dexqonlarning ixtiyoriy kooperatsiyalari kengaymoqda. Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni tezlik bilan bormoqda. Xitoy muxim iqtisodiy isloxotlarni amalga oshirish negizida «sotsialistik bozor munosabat» larini barpo etishni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa, V'etnam va Mo'g'uliston bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo'liga kirdi. LXDR

va Kubada sotsialistik printsiplar xamon iqtisodiyotning asosiy mezonini bo'lib qolishiga qaramay, bozor munosabatlari kengaymoqda. MDX doirasidagi mamlakatlarda bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlariga o'tish jarayoni jarayonida qishloq xo'jalik korxonalari bilan bir qatorda fermer va dehqon xo'jaliklari kengaymoqda.

Oziq-ovqat muammosi va uni xal qilishning asosiy yo'nalishlari. Axolini oziq-ovqat bilan ta'minlash insoniyat oldida turgan muammolarning markaziy qismini tashkil qiladi. Oziq-ovqat maxsulotlarini yetishtirish va iste'mol qilish nafaqat tabiiy omillarga bog'liq bo'libgina qolmay, balki mamlakatlar va rayonlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, xo'jalik ixtisoslashuvi, xududlarni o'zlashtirilganlik darajasi, ya'ni ishlab chiqarish kuchlarining taraqqiyoti bilan ham bog'liqdir.

Oziq-ovqat maxsulotlarining sifati, oziq-ovqat ratsionida muxim o'rin tutadi. Chunki, xayotning asosini tashkil qiluvchi oqsil chorvachilik maxsulotlari (go'sht, sut va tuxum) orqali iste'mol qilinadi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda axoli oziq-ovqat ratsionining 1/3 qismi chorvachilik maxsulotlari xissasiga to'g'ri kelgani xolda, qolgan mintaqalarda 1/10 qismini tashkil etadi, xolos. Oziq-ovqat maxsulotlarining energiya quvvati to'yimlilik (kaloriyaliligi) bilan o'lchanadi. Dunyo bo'yicha oziq-ovqat maxsulotlarining tuyimlilik darajasi ko'rsatkichi sutkasiga o'rtacha 2400 kkal (FAO me'yori bo'yicha) deb belgilangan bo'lsada, mutaxassislar uni 2700-2800, xatto 3300 kkal deb xisoblaydilar. AQSHda 1995 yil e'lon qilingan, ma'lumotga ko'ra sog'lom ovqatlanish me'yori ishlamaydigan ayollar uchun 1600 kkal, faol mehnatda band erkaklar uchun 2800 kkal. deb tavsiya qilinadi.

Axolini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlash muammosi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda deyarli xal qilingan bo'lsa-da, yer sharining katta qismida XX asr 90-yillarida ham eng keskin muammo (1992 yil Somolidagi ocharchilik 1 mln.dan ortiq somaliliklarning xayotni olib ketdi) bo'lib qolmoqda. Oziq-ovqat muammosining keskinligi MDX xududidagi mamlakatlar uchun ham

xarakterli jarayondir. To'yib ovqat yemaslik va yarim ochlik Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi uchun o'ziga xos «doimiy» muammo bo'lib qoldi.

Jaxon axolisining oziq-ovqat maxsulotlari bilan yetarli ta'minlash, istiqbolli oziq-ovqat rejasini amalga oshirishning bir qator yo'nalishlari mavjud tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillardan oqilona foydalanishni, yangi resurslarni ishga solishni taqozo qiladi.

Oziq-ovqat resurslarini kengaytirishning birinchi yo'nalishi mavjud yer fondidan samarali foydalanishdir. Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasida qishloq xo'jaligini tashkil qilish iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish, oziq-ovqat maxsulotlari tayyorlashni ko'paytirish imkonini beradi. Ikkinchi yo'nalish tropik va qurg'oqchil mintaqalarda melioratsiya ishlarini amalga oshirish negizida asosiy qishloq xo'jalik maxsulotlari yetkazib beruvchi mintaqalarni barpo qilish bilan bog'liq. Uchinchi yo'nalish, nisbatan qoloq agrar iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlar va xududlarda ITI yutuqlaridan keng foydalanish va agrosanoat integratsiyasini rivojlantirish asosida qishloq xo'jaligi samaradorligini ko'tarish yuqori unumli navlardan dexqonchilikda va maxsuldor xayvon turlaridan chorvachilikda foydalanish xamda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ekstensiv va intensiv shakllarini oqilona uyg'unlashtirish bilan bog'liqdir.

Xulosalar

➤ Dunyo xo'jaligida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi muxim o'rin tutadi va iqtisodiyotning eng qadimgi tarmog'idir. XX asrning 60-70 yillarida jaxon qishloq xo'jaligida dastlab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda avvalo, AQSHda yangi texnologik siljish «agrosanoat integratsiya»si jarayoni boshlandi. Agrosanoat integratsiyasi-sanoat birlashmalari va xizmat ko'rsatish soxalaridan farqli o'laroq, uning bosh xususiyati tarmoqlararo xarakterga ega bo'lib, bir-biridan texnologik jixatdan jiddiy farq qiluvchi sanoat va qishloq xo'jaligini tashkiliy va tijorat jixatdan birlashuvini ifodalaydi.

➤ Agrosanoat integratsiyasi tarixiy va mantiqiy sur'atda agrosanoat majmuasini tuzilishiga olib keldi. Xalqaro agrosanoat integratsiyasining bosh yo'nalishi-umumbashariy muammolardan biri bo'lib borayotgan yer shari axolisining oziq-ovqat maxsulotlari va sanoatni xom ashyo bilan ta'minlashdir. Agrobiznes esa yuqori foyda olish maqsadida qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq tarmoqlarni (marketing tizimi xam kiradi), sanoat kapitali, bank va sug'urta tashkilotlari bilan zamonaviy boshqaruv usullari va yo'llari asosida tashkil qilishdir.

➤ «Ko'k inqilob» XX asrning 60-yillaridan boshlab Lotin Amerikasi, Osiyo va Afrika mamlakatlarida amalga oshirilgan agrar isloxotlar bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir. SHuningdek, sut chorvachiligini rivojlantirish bilan bog'liq «oq inqilob» va qishloq xo'jaligi maxsulotlarini qayta ishlash sanoatini rivojlantirish maqsadlarida «jigarrang inqilob» xam amalga oshirilmoqda.

➤ qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishda ziroatchilik yetakchi soxa. Uning muxim tarmoqlari-don xo'jaligi, texnika ekinlari, moyli o'simliklar, «rag'batlantiruvchi» ekinlar, bog'dorchilik va uzumchilik, sabzovotchilik, kartoshkachilik va boshq. iborat.

CHorvachilik xam g'oyat murakkab tarmoq bo'lib, uning rivojlanishi ozuqa bazasi bilan bog'liq. CHorvachilik-yirik shoxli xayvonlar (qoramolchilik), qo'ychilik va echkichilik, cho'chqachilik, parrandachilik va boshqa tarmoqlardan iborat. Iqtisodiy jixatdan rivojlangan mamlakatlarda chorvachilik-intensiv va Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlarida-ekstensiv yo'nalishga ega. qishloq xo'jaligi bilan bog'liq oziq-ovqat va ekologik muammolar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI bo'sag'asida; hafvsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T., «O'zbekiston», 1997.
2. Abdullaev O. Iqtisodiy geografiya va ekologiya (ukuv kullanma) I kism. Namangan. 2002.
3. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –T., 2004.
4. Abdullaev O. Iqtisodiy geografiya va ekologiya (o'kuv kullanma) II kism. Namangan. 2006.
5. Asanov G., Nabixanov I., Safarov E. «O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi». -T.; «O'kituvchi». 1994.
6. Mironenko. N.S. Vvedenie v geografiyu mirovogo xozyaystvo. M., ANKIL 1995.
7. Soliev A.S., Maxamadaliev R. Iqtisodiy geografiya asoslari T., O'zbekiston, 1996.
8. Soliev A.S., Qarshibaeva. L. Iqtisodiy va sotsial geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. Guliston, 1999.
9. Soliev A.S. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish (ma`ruzalar matni) – T; Universitet, 2000.
10. Soliev A.S. Mirzaahmedov H., Jumaxanov SH. Qo'shma korxonlar geografiyasi – Namangan, 2007.
11. Soliev A.S., Nazarov M. O'zbekiston qishloqlari. (Qishloq joylar geografiyasi). –T.; Fan va texnologiya, 2009.
12. Soliev A., Komilova N. Tibbiyot geografiyasi. -T.: Istiqlol, 2005
13. To'xliiev. N. O'zbekiston iqtisodiyoti T., UME, 1998.
14. Kiryaev M. Mejdunarodnaya ekonomika. 2 t. – M., 1998.
15. Xasbulatov R. Mirovaya ekonomika – M., 1998.
16. Xachiev G. ekonomika mirovogo xozyaystva. – T., 1993.
17. Xachiev G. Uzbekistan v mirovoy ekonomike. – T., 1993.
18. Eshmuxammedov A. va boshqalar. Bozor munosabatlari sharoitida milliy iqtisodiyotning rivojlanishi. – T., 1995.
19. Hakimova M., Xo'jaev X., Maxmudov B. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T., 1997.
20. G'ulomov S.S. va boshq. Jahon iqtisodiyoti. Ma`ruzalar matni. – T., 1994.
21. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 12-jild. T., Davlat ilmiy nashriyoti. 2006
22. <http://worlds.ru> «Dunyo». Mazkur sayt bo'yicha dunyo mamlakatlarining geografiyasiga oid eng kerakli, qiziqarli va to'la ma'lumotlarni olish mumkin. Qulay navigatsiya.
23. <http://www.encarta.com> Dunyo mamlakatlarining katta etsiklopediyasi.
24. <http://www.countries.ru> Dunyo mamlakatlari-katalogi. elektron biblioteka.
25. <http://www.auditorium.ru/aud/index.php> Geografiya fani bibliotekasi. Darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma va ilmiy maqolalar bibliografiyasi.